

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI



“IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI”
FANI SILLABUSI

Bilim sohasi:	300000	–	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
	400000	–	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	310000	–	Ijtimoiy va hulk atvorga mansub fanlar
	410000	–	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishlari:	60310100	–	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
	60411200	–	Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

QARSHI – 2021 yil

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2021 yil 29 sentabrda institut Kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan o'quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi


“Moliya” kafedrasida katta o'qituvchisi
M.X.Dustova

Taqrizchilar

QDU, “Iqtisodiyot va servis” kafedrasida
dotsenti, i.f.n. G.Erkayeva
QMII, “Moliya” kafedrasida dotsenti,
i.f.n., Z.Ro'ziyev

Fanning sillabusi “Moliya” kafedrasining 2020 yil 14 sentabrda 2-son yig'ilishida hamda Iqtisodiyot fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2021 yil 19 sentabrda 2-son yig'ilishida muhokama qilib, tasdiqlangan.

Kafedra mudiri



dots.R.Omonov

Institut Uslubiy Kengashining 2021 yil 28 sentabrda 2-son yig'ilish qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i


(imzo) dots.Sh.Turdiyev

“Iqtisodiyot” fakulteti
Uslubiy komissiya raisi:


(imzo) dots.A.Qurbonov

“IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI” fani sillabusi

Fan (modul) kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS krediti
HISET/LANGUA5	2021-2022	I	2
Fan (modul) turi	Ta'lim tili		
Majburiy fan	o'zbek		Haftalik dars soati 2
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	30 ma'ruza 16 soat seminar 14 soat	30	60

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Moliya		
O'qituvchi	FISH	Telefon nomeri	e-mail
Ma'ruza			
Seminar	Dustova Muxayyo Xudayberdiyevna	906088228	dustova.80@mail.ru muxayyo1980@gmail.com
Laboratoriya mashg'uloti	-		

I.Fanning mazmuni

Ushbu fan ijtimoiy-iqtisod fan bo'lib, bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu fanda iqtisodiy tafakkur tarixi va iqtisodiy tahlillar sharhi berilgan. Darsda shuningdek, iqtisodiyotni fan va mafkura sifatida rivojlantirishning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Fanning maqsadi. Talabalarga Antik davrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan iqtisodiy fikrning rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berish. Iqtisodchilar har doim duch kelgan va hal qilishga uringan muammolar mohiyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Muammolarni hal qilishda iqtisodchilarning faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgarishlarni tushunish iqtisodiyotni fan sifatida shakllanish evolyusiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Fanni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng talabalar iqtisodiy ta'limotlar tarixidagi asosiy maktablar va tendensiyalarni ajrata olishlari va XIX-XX asrlar iqtisodiy yondashuvlarining analitik asoslarini tushunishlari kerak.

II. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

No	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1.	“Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fanining predmeti va o'rganish usuli. Klassik davrgacha	Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bulishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa,	2

bo'lgan qadimgi iqtisodiy ta'limotlar	iqitiodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misr. Hammurapi qonunlari. Qadimgi Xindistonning iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari. «Arxashastra» traktati. Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari. Zardushitizm (Ovesta)dagi iqtisodiy g'oyalari. Qadimgi Gretsiya ilk kuldorlik jamiyatining iqtisodiy qarashlari. Ksenofont. Aflotun (Platon)ning iqtisodiy loyihalari. Qadimgi Rimning iqtisodiy konssetsiyalari. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Marg'ironiyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari, qo'y-qo'zi, qoramollardan olinadigan zakot miqdori, Forbiy asarlarida «ehtiyoj», mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlaridagi iqtisodiy qarashlar. Nizomulmulknig "Siyosatnoma" asaridagi iqtisodiy fikrlar. Yusuf Xos Xojibning "Qutad'u bilig" asari, unda rayyatning hukmdorga talablari. XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. "Temur tuzuklari", undagi iqtisodiy g'oyalari. Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalari. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin" va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalari. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning xozirgi davr uchun axamiyati.
2.	O'rta asr iqtisodiy qarashlari

Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti	Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret'yen (Fransiya), Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya proteksionizmi, Fransiya-kol'bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri. Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Uil'yam Petti asarlari. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi (Fransiya). «Tabiiy tartib» konsepsiyasi. «Sof mahsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. A.Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. D.Rikardo – sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalari. Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bulishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Mal'tus. Uning «Nufus nazariyasi». F.Listning "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi" asaridagi g'oyalar. J.Mill' (otasi), D.Mak-Kullox va boshqalar asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.S.Mill' (o'g'li)ning tadqiqot predmeti va
Klassik (mumtoz) maktabning vujudga kelishi Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi	3.